

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG SHE'RLARI KO'ZGUSIDA VATAN
TIMSOLINING SEMANTIK VA LINGVISTIK JIHATDAN TAHLILI**

Madaminova Mohinabonu Ma'rufjon Qizi ¹

¹ O'zDJTU 3-fakulteti 1-kurs talabasi

mohinabonu131@gmail.com

Turg'unboyeva Arofatxon Otabek Qizi ¹

¹ O'zDJTU 1-fakulteti 1-kurs talabasi

Arofatxon2006@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:16.03.2024

Revised: 17.03.2024

Accepted:18.03.2024

KALIT SO'ZLAR:

Aleksandr Faynberg,
vatan timsoli, lingvistik
tahlil, semantic tahlil,
she'riyat, milliy
qadriyat, vatanga
sadoqat, vatan
muhabbati

Ushbu maqolada Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodi tahlil qilingan. Shoirning she'rlarida Vatan timsoli, insoniy tuyg'ular, tabiat va hayot falsafasi uyg'un holda ifodalangani ko'rsatilgan. Maqolada Faynbergning she'riyati lingvistik va semantic jihatdan tahlil qilinib, uning o'zbek adabiyotidagi o'rni yoritilgan.

KIRISH. Adabiyot har qanday xalqning ma'naviy boyligi, madaniy yuksalishining asosiy omillaridan biri bo'lib, unda inson qalbining eng nozik tuyg'ulari, orzu-umidlari, dardu hasratlari, hayotga, vatanga bo'lgan munosabati o'z ifodasini topadi. Ayniqsa, poeziya janri inson qalbining eng chuqur his-tuyg'ularini ifodalashda, Vatanga bo'lgan muhabbat, sadoqat, mehr-oqibat tuyg'ularini xalq ongiga singdirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyotida ham bu borada yuksak an'analar shakllangan bo'lib, har bir davrda ijod qilgan shoir va adiblar asarlarida Vatan obraziga alohida e'tibor qaratilgan. Ular o'z asarlarida Vatanni inson hayotining mazmuni, insoniylik, g'urur, oriyat, mustaqillik va milliy g'urur ramzi sifatida talqin qilishgan.

Ana shunday ijodkorlardan biri — o'zbek she'riyati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan taniqli shoir Aleksandr Faynbergdir. U XX asr o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri sifatida o'zining chuqur ma'noli, falsafiy ruhdagi she'rlari bilan adabiyot ixlosmandlari qalbidan munosib o'rin egallagan. Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodi vatanga muhabbat, xalqparvarlik, insoniy burchga sadoqat g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, uning asarlarida Vatan timsoli nihoyatda yuksak va ma'naviy mazmun kasb etgan. Faynberg

=====

uchun Vatan — bu faqatgina ona zamin, tugʻilib oʻsgan maskan emas, balki insonning maʼnaviy kamoloti, burch va fidoyilik ramzidir. Shoir oʻz sheʼrlarida Vatanni tabiat goʻzalligi, xalqining irodasi, tarixiy merosi va kelajagi bilan uygʻun holda tasvirlab, uni muqaddas timsol darajasiga koʻtaradi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani yozishda Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodi bilan bogʻliq qimmatli maʼlumotlar quyidagi manbalar asosida oʻrganildi: ilmlar.uz portalida chop etilgan “Faynberg Aleksandr Arkadyevich hayoti va ijodi” maqolasi, Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi viki sahifasi, scientific-jl.com saytida eʼlon qilingan ilmiy maqola, cyberleninka.ru platformasidagi tahliliy maqola hamda oriens.uz jurnalidagi “Aleksandr Faynberg qalblarda mangu yashaydi” nomli maqola. Bundan tashqari sheʼriyat boʻyicha bir necha manabaalar asosida keng xulosalar olindi. Shu bilan birga, adibning sheʼriy asarlari asosiy tahlil obyekti sifatida olingan boʻlib, ular orqali shoirning Vatan timsoli, inson ruhiyatiga munosabati va adabiy mahorati tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aleksandr Faynbergning “Vatan” sheʼri shakl va mazmun jihatdan juda boy, koʻp qatlamli poetik asar boʻlib, unda shoirning ona yurti, milliy qadriyatlar va insoniylik haqidagi teran fikrlari mujassam. Lingvistik tahlil nuqtayi nazaridan qaraganda, sheʼrda fonetik, leksik, grammatik va stilistik vositalardan keng foydalanilgan. Sheʼrning ohangdorligi, tovush takrorlari va urgʻuli soʻzlar mahorat bilan tanlangan. Sheʼrning birinchi misrasida “Quyoshli, toʻrtburchak dalalardan to / Tizma togʻlargacha choʻzilgan Vatan” satrlari bilan boshlanishi Vatanning tabiat manzarasini kenglik va yuksaklik timsolida tasvirlashga xizmat qiladi. Bu yerda "Quyoshli" sifatlashuvi ijobiy emotsional boʻyoqqa ega boʻlib, ona yurtining nurli, mehribon qiyofasini koʻrsatadi. "Toʻrtburchak dalalar" ifodasi esa xalqning mehnat qiladigan joyi, tirikchilik manbai sifatida keltiriladi. "Tizma togʻlar" esa Vatanning bardavomligi, yuksakligi, mustahkamligini anglatadi. Geografik manzarani toraytirib emas, balki choʻzilgan holda tasvirlash orqali shoir Vatanining keng, bagʻrikeng va moʻʼjaz emas, balki cheksizdek tuyuladigan makon ekanini koʻrsatadi. Keyingi misralarda "Yoʻllarning girdida boʻlib girgitton / Gumbazdek teraklar turarlar qator" deyilganida, xalqona, oddiy hayot koʻrinishlari — yoʻl chetidagi teraklar, ular qatori tartiblanganligi xalq hayotining osoyishtaligi, oddiy, tabiiy goʻzalligini aks ettiradi. "Gumbazdek teraklar" metaforasi orqali teraklar yurt osmonining, Vatan gumbazining ajralmas qismi sifatida tasvirlanadi, tabiat va inson hayoti uygʻunligi seziladi.

"Dalalarni kezdin qadamma-qadam, / Teodolit koʻtarib, oʻlchadim tanob" misralarida shoir oʻz hayotiy tajribasiga murojaat qilgan. Teodolit – geodeziya asbobi – ilm-fan va mehnat ramzi sifatida keltirilgan. Shoir ona yerini faqat estetik, emotsional jihatdan emas, balki uni ilmiy, aniq oʻlchamlar orqali ham anglaganini koʻrsatadi. "Qadamma-qadam"

ifodasi Vatanni butun vujud bilan his etish, uni yurakdan sevisish, unga mehr bilan boqish jarayonini bildiradi.

"Loysuvoq uylarda simirdim chalob, / Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom" misralari xalqona turmush tarzining ifodasidir. "Loysuvoq uylar" oddiy xalq yashaydigan uylardir, ular shoirning Vatanga bo'lgan sadoqati, soddaligini, xalqchilligini ko'rsatadi. "Simirdim chalob" deyish bilan xalqona ovqat, milliy an'analar, hayot tarziga mehr aks ettirilgan. "Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom" iborasi esa xalqning ochiqko'ngilligi, mehmondo'stligi, do'stona muhitini ifodalovchi obrazdir. Lingvistik jihatdan qaraganda, bu satrlarda xalq og'zaki nutqiga xos so'zlar, ifodalar, dialektal birliklar poetik matn tabiatiga moslashtirilgan. "Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim – / O'zbekistondadir xokim, turobim" satrlari she'rning semantik nuqtayi nazardan cho'qqisidir. "Mushfiq yurt" sintagmasi Vatanning mehribonligi, ona mehridek g'amxo'rligini aks ettiradi. "Nasl-u nasabim", "xokim", "turobim" so'zlari orqali shoir o'z ildizlariga, ajdodlariga bo'lgan hurmatini, Vatanning tuprog'i bilan bog'langanligini anglatadi. "Xok" va "turob" so'zlari ma'nodosh bo'lib, inson hayoti va Vatan tuprog'i o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ramziy ma'noda beradi.

"Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham" satrida shoir Vatanning yuksakligiga, uning o'ziga xosligini ulug'lash bilan boshqa davlatlarga, o'zga madaniyatlarga berilgan e'tiborni rad etadi. Bu qatorda milliy g'urur, mustaqillik tuyg'usi va xalqiga bo'lgan sadoqat ohangini ko'ramiz. "Mag'rur parvoz etar burgut falakda" misrasi Vatanning ulug'ligi, erkinligi va g'ururini tasvirlash uchun burgut obrazidan foydalangan. Burgut – erkinlik, kuch-quvvat va jasorat timsolidir. Vatanning osmonida parvoz etayotgan burgut, xalqining mag'rur, mustaqil, yuksak orzular bilan yashashining ramzi sifatida keltiriladi.

So'nggi misralarda "O't tishladim. Labda sho'r ko'z yosh. Bu dam / ham dardni, ham baxtni tuydim yurakda" deyilgan. Bu satrlarda Vatanning shirin va achchiq kunlari, xalq hayotining mashaqqatlari va zavqlari bir butun sifatida tasvirlanadi. Shoir uchun Vatan – nafaqat baxt, balki qiyinchilik, fidoyilik, ko'z yosh va sabr ramzi hamdir. "O't tishladim" frazeologizmi insonning hayotda ko'rgan mashaqqatlari, lekin bardavomligi, mustahkamligi obrazini beradi. She'r o'zining semantik qatlamida Vatanning keng va tabiiy go'zalligini, xalqining soddaligi va mehmondo'stligini, shoirning xalqiga, tuprog'iga, tarixiy ildizlariga bo'lgan sadoqatini ifodalaydi. Lingvistik jihatdan esa xalqona, oddiy leksik birliklardan to poetik metaforalargacha bo'lgan boy ifoda vositalaridan foydalanilgan. Faynberg bu she'rda Vatanni inson hayoti, ajdodlar, qiyinchilik va baxt timsolida ko'rsatib, uni ilohiy darajaga ko'taradi. Vatanning soddaligi, xalqchil ruh, mustaqillik va insoniy oriyat she'rning asosiy semantik yadrosi hisoblanadi.

Aleksandr Faynbergning vatanga bo'lgan muhabbati, inson va ona yurt orasidagi ajralmas bog'liqlik tuyg'usi uning ko'plab she'rlarida asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi. Yuqorida tahlil qilganimiz "Vatan" she'rida shoir Vatan manzaralari, xalq hayoti va

o‘zining yurti bilan bog‘liqlikni tasvirlagan bo‘lsa, aynan shu mavzudagi yana bir “Okeanni yorib suzadi kema” deb boshlanuvchi she‘rida bu mavzuni yanada falsafiy chuqurlikda davom ettiradi. Shoir inson hayotining mohiyatini Vatandan ajratib bo‘lmasligini, odam uchun yurtning beqiyos o‘rni borligini teran ma‘no bilan ifodalagan. She‘rning birinchi misrasi “Okeanni yorib suzadi kema” degan kuchli metafora bilan boshlanadi. Bu yerda “kema” inson hayot yo‘li, uning hayotidagi yo‘nalish va harakat ramzi sifatida ishlatilgan. “Okeanni yorib” iborasi esa insonning hayotdagi kurashlari, sinovlari, to‘siqlari ifodasi sifatida talqin etilishi mumkin. Kema okeanni yorib suzayotgan bo‘lsa-da, uni boshqarib turgan kuch – insonning irodasi va Vatanga bo‘lgan sadoqatidir. Keyingi misrada “Bir yelkanda uchta pushta – uch Vatan” deyilgan. “Pushta” so‘zi bu yerda yelkanlarga tortilgan belbog‘, tayanadigan kuch timsolida keltirilgan. Uch Vatan obrazining semantik talqini chuqur: bu insonning tug‘ilgan yurti, ajdodlari vatani va orzu qilgan kelajak vatani sifatida talqin qilinadi. Shoir mana shu yelkanlarni birlashtirgan holda inson qayerda bo‘lsa ham, aslida faqat bitta Vatani borligini ta‘kidlaydi.

“Odamning Vatani bittadir, demak, / Bir yerda ko‘kargay tirik jon va tan” satrlari she‘rning semantik markazidir. Bu yerda inson vatansiz yashay olmasligi, jon-u tan ko‘karishi faqat ona yurti tuprog‘ida bo‘lishi mumkinligi aniq ifodalangan. “Ko‘kargay” fe‘li hayotning davomiyligi, insonning o‘sishi, kamol topishi faqat Vatan bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Navbatdagi misralarda xalqona obrazlar orqali hayot haqiqatlari ochiladi: “Ostonaga mahkam mixlagan taqa, / Uyga keltirolmay ko‘chadan pirog”. Bu yerda “taqa” va “pirog” tasvirlari xalq turmush tarzidan olingan. “Taqa” — mustahkamlik, barqarorlik timsoli, biroq uni ostona (oila, yurt)ga mahkam mixlash, ya‘ni hayotni an‘analar, qadriyatlar bilan bog‘lash tasvirlanadi. Biroq ko‘chadan pirog olib kelolmaslik — inson hayotida barcha orzular, baxt kutilganidek bo‘lavermasligi, hayotning achchiq haqiqatlarini bildiradi. Shoir hayotning inson qo‘lidan hamisha kelavermasligini, lekin Vatanga bo‘lgan sadoqat inson hayotining asosiy tayanchi ekanini ta‘kidlaydi.

"Maysalar va toshlar asraydi tayin / Otamning izini, onam xokin – gil" satrlari o‘ta emotsional va semantik boy qatamlarga ega. Bu yerda “maysa” va “tosh” – hayotning ikki qutbi: yumshoqlik va qattqlik, noziklik va mustahkamlik obrazlari orqali ajdodlar xotirasi, ota-onaning yodi yurt tuprog‘iga singib ketgani tasvirlanadi. Tosh qattqligi inson taqdirining qiyinchiliklarini, maysa esa mehr, ona mehrini bildiradi. Ona xokining “gil” deb ta‘riflanishi esa ona vatanning ona tabiat bilan uyg‘un tasviriga asoslangan.

“Tosh shunday qattiqki, O‘t shunday mayin. / Shunday qattiq taqdir, shunday bo‘sh ko‘ngil” satrlarida qarama-qarshi obrazlar orqali hayot falsafasi berilgan. Insonning tashqi qiyofasi yoki hayoti qanchalik sinovlarga boy bo‘lsa ham, qalbi, ko‘ngli yumshoq, nozik bo‘lib qoladi. Tosh va o‘t metaforalari insonning tashqi va ichki dunyosini badiiy ifodalaydi. Keyingi bandda “Bolalikdan parvoz qilgan sa‘vajon. / Sayroqi qushginam, Parim – qanotim” deyilgan. Bolalik — insonning eng beg‘ubor davri, sa‘va qushi esa orzular,

erkinlik, umid ramzi sifatida ishlatilgan. Shoir vatanning eng beozor davri – bolalik yillarining ham ajralmas qismi bo‘lib qolishini ta’kidlaydi. She’rning eng kuchli yakuniy misralari: “Biz ketsak hech qachon g‘am chekmas Vatan, / Biz harom o‘lamiz yurtsiz, hayotim”. Bu yerda shoir inson Vatandan ketgan taqdirda ham Vatan mustahkam, bardavom bo‘lishini, biroq inson yurtsiz qolsa, hayoti ma’nosiz, begona va bo‘sh bo‘lishini anglatadi. Vatan inson uchun yagona orom maskani, hayotining asosiy mazmuni ekanini qat’iy ifodalab, o‘z fikrini chuqur falsafiy qatlamga ko‘taradi.

Faynbergning bu she’rida ham yuqorida tahlil qilingan "Vatan" she’rida bo‘lgani kabi, Vatan timsoli inson hayotining asosi sifatida talqin qilinadi. Shoir xalqona obrazlar — kema, pushta, taqa, piroq, maysa, tosh, qush kabi vositalar orqali inson hayoti va Vatan o‘rtasidagi uzviy, ajralmas bog‘liqlikni chuqur tasvirlaydi. Ushbu she’rda hayotning achchiq haqiqatlari, inson taqdirining murakkabligi, ammo shunga qaramay, Vatanning inson qalbidagi muqaddas o‘rni badiiy vositalar yordamida yuksak poetik darajada ifodalangan. Shoirning Vatanni tasvirlashda xalqona obrazlar va metaforalarni o‘ziga xos, ramziy ma’nolar bilan boyitishi uning poetik uslubining yorqin namunasi sifatida ajralib turadi. Faynberg uchun Vatan inson hayotining bosh manbai, insonning kimligi, oriyati va yashash sababi sifatida gavdalanadi.

XULOSA

Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodini tahlil qilish davomida aniqlanganki, shoir nafaqat o‘z davrining yetuk vakili, balki xalq va insoniyat ruhiyatining nozik kechinmalarini aks ettira olgan yuksak iste’dod egasi sifatida tanilgan. Uning she’riyatida vatanga sadoqat, insoniy tuyg‘ular, muhabbat va hayot falsafasi chuqur ifodalangan bo‘lib, o‘zbek adabiyotida milliylik va universallik uyg‘unligini yaratishda alohida o‘rin tutadi. Faynbergning she’rlarida Vatan timsoli – ona zamin, xalq, tabiat va inson hayotining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Uning “Vatan” va boshqa she’rlarida shoirning yurtga bo‘lgan sadoqati, mehr-muhabbati va faxr tuyg‘usi bevosita ko‘zga tashlanadi. Bu obraz orqali Faynberg inson qalbida vatanga muhabbatni uyg‘otish, uni qadrlash g‘oyalarini ilgari suradi. Ayniqsa, shoir ijodida inson ruhiyatining ziddiyatlari, taqdirning achchiq-shirin tomonlari va hayotdagi oddiy lekin chuqur ma’noli tasvirlar yetuk badiiy mahorat bilan yoritiladi. Shoirning ijodi o‘zbek va jahon adabiyoti oralig‘ida ko‘prik vazifasini bajaradi, u Sharq va G‘arb madaniyatini sintez qilgan holda, zamonaviy inson ruhiyatining universal muammolarini ilgari suradi. Bu jihat Faynberg asarlarini nafaqat o‘zbek adabiyoti doirasida, balki xalqaro adabiy maydonda ham dolzarb bo‘lib turishini ta’minlaydi. Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynbergning ijodi nafaqat estetik zavq bag‘ishlovchi badiiy meros, balki inson va vatan, inson va hayot, inson va insoniyat o‘rtasidagi nozik munosabatlarni anglashga da’vat etuvchi yuksak ruhiy manba hamdir. Uning asarlari bugun ham yosh avlod uchun ibrat manbai bo‘lib xizmat qilishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha dastur va uslubiy qo'llanma. Gulnoza Jo'rayeva : Toshkent – 2020 – 30-49-sahifalar
2. Adabiot nazariyasi ikki tomlik 2-tom (Adabiy-tarixiy jarayon). M. K. Nurmammedov. Toshkent, O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. 1979. – 123-183-sahifalar
3. Adabiyotshunoslikka kirish (Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik). D. Quronov. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti – 2007. – 137-148-sahifalar
4. Aleksandr Faynberg (Qoralamaga qasida). Sirojiddin Sayyid, Rustam Musurmon. Toshkent, "ADABIYOT" – 2021. – 11-30-sahifalar
5. Aleksandr Faynberg: qalbida O'zbekiston muhabbati jo'sh urgan shoir. Zuhra Norboyeva Alijon qizi. Образование наука и инновационные идеи в мире/ Выпуск журнала №-656 Часть – 1_Март – 2025 – 142-145-sahifalar
6. Aleksandr Faynberg ijodiy merosi. Rashidova Amina Uktam Kizi. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture Volume 4, Issue 2, February 2024 – 135-137-sahifalar
7. Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti va ijodi. Zubayda Anarkulova. Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari 30-sentyabr 2024-yil – 229-302-sahifalar

ONLINE SAHIFALAR:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg?utm_source=chatgpt.com
2. https://ilmlar.uz/faynberg-aleksandr-arkadevich-hayoti-va-ijodi/?utm_source=chatgpt.com
3. https://www.uzswlu.uz/aleksandr-faynberg-hayoti-va-ijodi?utm_source=chatgpt.com
4. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009?utm_source=chatgpt.com